



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Guldonga Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLISSH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



Iroda Rasulovna Tishabayeva,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasida dotsenti
Email:tishabayevairodahon@gmail.com.
ORCID: 0009-0001-3081-8917

1950–1970 YILLARDA O‘ZBEKISTON MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI

For citation: Iroda R.Tishabayeva. ISSUES OF ORGANIZING CHILDREN'S NUTRITION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN IN 1950-1970. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.76-80

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806108>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1950-1970-yillarda O‘zbekiston SSR maktabgacha ta’lim muassasalarida oziq-ovqat ta’minoti holati va davlat siyosatining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xususan, Sirdaryo viloyati misolida maktabgacha ta’lim muassasalarida yuzaga kelgan oziq-ovqat ta’minoti muammolari, taomnoma noto‘g‘ri tuzilishi va oziq-ovqatning past kaloriyaligi bo‘lishi kabi kamchiliklar o‘rganiladi. Shuningdek, 1971-yil 17-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 396-sonli qarori va uning mazmuni, ta’lim muassasalarini oziq-ovqat bilan ta’minlashdagi kolxozlarning roli, shuningdek, qarorning amaliyotga tatbiq etilishidagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, oziq-ovqat ta’minoti, Sirdaryo oblasti, kolhoz, sog‘lom ovqatlanish, taomnoma, sharoit, tafovut.

Ирода Расуловна Тишабаева,
Ферганский государственный технический университет
Доцент кафедры социальных наук и спорта

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕТСКОГО ПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА В 1950-1970-Е ГОДЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется состояние обеспечения продуктами питания дошкольных образовательных учреждений Узбекской ССР в 1950-1970-х годах и его взаимосвязь с государственной политикой. В частности рассматриваются проблемы обеспечения пищей дошкольных учреждений в Сырдарьинской области, такие как неправильное составление меню и низкая калорийность питания. Также обсуждается содержание постановления № 396 Совета Министров Узбекской ССР от 17 августа 1971 года, роль колхозов в обеспечении питанием образовательных учреждений и трудности, возникшие при реализации данного постановления.

Ключевые слова: дошкольное образование, обеспечение питанием, Сырдарьинская область, колхоз, здоровое питание, меню, условия, различия.

Iroda R. Tishabayeva,
Ferghana State Technical University
Associate Professor of the Department of Social Sciences and Sports

ISSUES OF ORGANIZING CHILDREN'S NUTRITION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN IN 1950-1970

ABSTRACT

This article analyzes the state of food supply in preschool educational institutions of the Uzbek SSR during the 1950-1970s and the interrelation with state policy. Specifically, it examines the problems of food provision in preschool institutions in the Syrdarya region, including issues such as incorrectly composed menus and low-calorie meals. The article also discusses the content of the Resolution No. 396 adopted by the Council of Ministers of the Uzbek SSR on August 17, 1971, the role of collective farms in supplying food to educational institutions, and the challenges encountered during the implementation of the resolution.

Index Terms: preschool education, food supply, Syrdarya region, collective farm, healthy nutrition, menu, conditions, disparities.

Kirish:

Bolalarning sogʻlom va xavfsiz ovqatlanishini taʼminlash har qanday davrda va har qanday jamiyatda eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha taʼlim muassasalarida ushbu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bogʻcha oshxonalari va guruh xonalari sanitariya-gigiyena qoidalari asosida faoliyat yuritishi qatʼiy belgilangan. Bolalar bogʻchalarida sogʻlom ovqatlanishni tashkil etishdan koʻzlangan asosiy maqsad – tarbiyalanuvchilarning sogʻlom, jismonan chiniqqan, aqliy va maʼnaviy jihatdan barkamol shaxs boʻlib voyaga yetishini taʼminlashdir. Bu esa, oʻz navbatida, sifatli va xavfsiz ovqatlar tayyorlash hamda ovqatlanish jarayonini gigiyenik talablar asosida tashkil etishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ayni haqiqatni ifodalaydi: “Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sogʻlom va bilimli avlodga bogʻliq. Shu bois yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida sogʻlom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur” [8.]

Ushbu yondashuv, ayniqsa, bolalarning ilk rivojlanish bosqichida – maktabgacha taʼlim tizimida – ularning ovqatlanishini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli tarixiy jarayonlarga nazar tashlash, xususan, 1950–1970-yillar oraligʻida Oʻzbekiston maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalar ovqatlanishini tashkil etish masalalarini oʻrganish bugungi kundagi islohotlar uchun ham muhim tajriba vazifasini bajaradi.

Metodlar va oʻrganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. Maqolada 1950-1970-yillarning davriy chegarasida Oʻzbekistondagi maktabgacha taʼlim muassasalarining tibbiy holati tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonlarga taʼsir koʻrsatgan asosiy omillar yoritiladi. Bu esa tarixiy tajribani baholash va hozirgi islohotlar uchun muhim asos yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan maʼlumotlar ham tahlil qilingan.

Mazkur davrni oʻrganish jarayonida bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ham murojaat qilindi. Jumladan, N. Boboxoʻjayevning “Qishloq joylardagi bolalar bogʻchalarida bolalarni toʻgʻri ovqatlanishini tashkil etish” nomli kitobida maktabgacha tarbiya muassasalarida sogʻlom ovqatlantirish masalalariga toʻxtalib oʻtgan [1.]. Shu bilan birga, O. Ishanxodjayeva “Oʻzbekiston SSRda jamoaviy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi” nomli tadqiqot ishida kolxoz bolalar bogʻchalarida oziq-ovqat bilan taʼminlash masalalarini qisman yoritib oʻtgan [2.]. Shuningdek, Sh.

Maqsudov o‘zining “Millioner kolxozning bolalar bog‘chasida” nomli maqolasida brigadalarda tashkil etilgan yasli va bog‘chalarda ovqatlanirish holatini tahlil qilgan [3.].

Ushbu maqolada 1950-1970-yillardagi shahar va qishloq maktabgacha muassasalarining oziq-ovqat ta‘minoti, shahar va qishloq bog‘chalari o‘rtasidagi tafovutlar hamda ushbu holatlarning ta‘lim tizimiga ko‘rsatgan ta‘siri yanada chuqurroq o‘rganiladi.

Tadqiqot natijalari:

1950–1970 yillar oralig‘i Sovet Ittifoqi tarkibidagi O‘zbekiston SSRda keskin iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y bergan davr edi. Bu davrda sanoatni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va ayollarni ishlab chiqarish mehnatiga jalb etish siyosati davlat miqyosida faol olib borildi. Shu sababli, ayollar ish faoliyatini davom ettirishi uchun bolalar bog‘chalari, yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalariga ehtiyoj ortdi.

Ammo mavjud ijtimoiy infratuzilma (ayniqsa, qishloq joylarida) bu ehtiyojni to‘liq qondira olmadi. Matnda ta‘kidlanganidek, kolxoz va sovxozlarga qarashli bolalar bog‘chalari go‘sht, baliq, meva-sabzavot, sut kabi muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘z vaqtida va muntazam ta‘minlanmagan [4.7.]. Bu holat, aslida, o‘sha davrdagi umumiy iqtisodiy boshqaruv tizimining (rejali iqtisodiyot) samarador emasligidan dalolat beradi.

1950-yillar Sovet Ittifoqida, xususan, O‘zbekiston SSRda jadal industrializatsiya va qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish davri edi. Ayollarni ishlab chiqarish mehnatiga jalb qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsad qilingan. Shu sababli brigadalar qoshida ko‘chma yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalariga ehtiyojlariga bo‘ysundirilganini ko‘rsatadi.

Brigadalar faoliyati doirasida tashkil etilgan vaqtinchalik tarbiya muassasalari – sifatli maktabgacha ta‘lim va gigiyenik sharoitlar nuqtai nazaridan talabga javob bermagan. Bolalar uchun alohida xona yoki ovqatlanish joylarining yo‘qligi, belanchaklarda saqlanishi va umumiy qozondan ovqatlanishlari sog‘liq uchun bevosita xavf tug‘dirgan [5.23.]. Hususan, 1956-yilda Namangan viloyatidagi Stalin nomli kolxozda mavjud bo‘lgan atigi 3 ta doimiy bog‘chaga nisbatan 50 dan ortiq brigadaga ko‘chma yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalariga ehtiyojlariga bo‘ysundirilganini ko‘rsatadi. Bu holat ta‘lim va parvarish sifati bo‘yicha keskin tafovut mavjudligini, ko‘chma yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalarining bajarilmasligini bildirgan. Ayollar iqtisodiy maqsadlar uchun ish kuchi sifatida safarbar qilingan, biroq ularning bolalari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan.

Kolxoz va sovxozlarda sut mahsulotlariga asoslangan ovqatlar bilan ta‘minlash uchun sutli oshxonalar (molochnyaya kuxnya) tashkil qilingan. Sutli oshxonalar sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan. Ular maktabgacha ta‘lim muassasalarini sutli ovqatlarni yetkazib berishi kerak edi. Lekin, hamma kolxozlarda ham bunday oshxonalar o‘z vaqtida ochilmagan.

1959-yilda Qo‘qon shahrida ilk sutli oshxona ochildi. Bu ijobiy tashabbus sifatida qaralsada, 1960-yilda Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlarida rejalashtirilgan sutli oshxonalar o‘z vaqtida ochilmadi. Bu esa qishloq hududlaridagi bog‘chalar va yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalarining bajarilmasligini bildirgan. Ayollar iqtisodiy maqsadlar uchun ish kuchi sifatida safarbar qilingan, biroq ularning bolalari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan.

Rejalarga ko‘ra, 1966–1970 yillar davomida Farg‘ona viloyatida 113 ta sutli oshxona tashkil etilishi kerak edi. Amalda esa atigi 5 tasi tashkil etilgan, mavjud 20 ta oshxonaning holati esa qoniqarsiz edi [10.57.].

Qishloq bolalar bog‘chalari va yasli va boshqa maktabgacha ta‘lim muassasalarining bajarilmasligini bildirgan. Ayollar iqtisodiy maqsadlar uchun ish kuchi sifatida safarbar qilingan, biroq ularning bolalari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan.

Shahar yoki shahar tipidagi posyolkalardagi maktabgacha ta‘lim muassasalari nisbatan yaxshi ta‘minlangani bilan, qishloq joylarida bu tizim zaif edi. Bolalarga manniy bo‘tqa doimiy tayyorlansa-da, bu ularning to‘laqonli ovqatlanishini ta‘minlamas edi [11.].

O‘rganilayotgan davrda, maktabgacha ta‘lim muassasalarining atigi 28 foizi malakali oshpazlarga ega bo‘lgan [12.5.]. Ovqatlarning bemaza yoki pishmay qolish holatlari ko‘plab bog‘chalarda kuzatilgan. Bu holat, ayniqsa, Farg‘ona viloyatidagi SMK-3 tashkilotiga qarashli

bog'chada sodir bo'lib, oshpaz Sergina tomonidan tayyorlangan ovqat sho'r, kartoshka pishmagan holda bolalarga tarqatilganligi aniqlangan [13.66.].

Oshpazlarning maxsus ma'lumotga ega emasligi, ovqat pishirish texnologiyalarini bilmasligi, eng asosiysi — ularning ish haqlari juda pastligi sababli malakali kadrlar bolalar bog'chalarida ishlashni istamas edi.

1961-yil Sovet Ittifoqining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida yangi bosqich boshlangan davr edi. 1961-yil 26-iyulda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan qabul qilingan 1201-sonli qaror bolalar bog'chalarining oziq-ovqat, ayniqsa sut mahsulotlari bilan ta'minotini yaxshilashga qaratilgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy hujjat bo'ldi. Unga ko'ra, Farg'ona viloyati mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya kengashi shahar va qishloq bolalar bog'chalarini sut mahsuloti bilan ta'minlash maqsadida alohida mablag' ajratdi. Unga ko'ra shahar bolalar bog'chalari uchun 5330 ming rubl, qishloq bog'chalari uchun 2170 ming rubl mablag' ajratildi [6.134.].

1970-yillarning boshlarida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va to'laqonli ovqatlanishini ta'minlash masalalari davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolgan edi. Shunga qaramay, viloyatlar kesimida olib borilgan tekshiruvlar muassasalarda oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, 1971-yilda Sirdaryo viloyatida olib borilgan nazorat tadqiqotlari natijasida bolalar bog'chalarida taomnoma noto'g'ri tuzilgani, ratsionlarda bolalar yoshiga mos ovqatlar belgilab berilmaganligi va ovqatlarning koloriyasi (enerjik qiymati) me'yorlardan past ekani aniqlangan. Bu kabi kamchiliklar sog'lom ovqatlanish prinsiplari buzilishiga olib kelgan va bu esa tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [7.173.].

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1971-yil 17-avgustda "Kolxozlarning doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 396-sonli qaror qabul qilindi [1.9.]. Ushbu huquqiy hujjatda qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Jumladan, doimiy maktabgacha ta'lim muassasalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kolxozlar zimmasiga yuklatildi, tarbiyalanuvchilar sog'lom ovqatlanishi uchun zarur bo'lgan 24 xil oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati tasdiqlandi. Mazkur qarorning qabul qilinishi respublika miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini sog'lomlashtirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amalda uning to'liq ijrosi turli hududlarda har xil kechdi.

Xulosa:

1950–1970 yillarda O'zbekiston maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ovqatlanishi bo'yicha jiddiy muammolar mavjud bo'lgan. Ushbu davrda oziq-ovqat ta'minoti, sanitariya holati va kadrlar malakasi bo'yicha ko'plab kamchiliklar kuzatilgan. Biroq, qabul qilingan qarorlar, ochilgan sutli oshxonalar va ajratilgan mablag'lar orqali bosqichma-bosqich o'zgarishlar amalga oshirilgan.

1950-yillarda O'zbekiston SSRda brigadalar qoshida tashkil etilgan ko'chma yaslilar maktabgacha ta'lim tizimidagi resurs yetishmovchiligi, sanitariya talablariga rioya qilinmasligi va muassasa sifatidagi funktsional zaifliklarini ko'rsatadi. Doimiy bolalar bog'chalari bilan taqqoslaganda, ko'chma brigada yaslilari siyosiy qarorlar va real hayot o'rtasidagi tafovutni ochib beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Бобохўжаев Н. Қишлоқ жойлардаги болалар боғчаларида болаларни тўғри овқатланишини ташкил этиш. Тошкент: Медицина, 1980. – Б.9. (Babakhojaev N. Organization of proper nutrition of children in kindergartens in rural areas. Tashkent: Medisina, 1980. – P.9.)
2. Ишанходжаева О. Развитие общественного дошкольного воспитания в Узбекской ССР. Ташкент, Фан. 1990, С. 23. (Ishankhodzhayeva O. The development of public preschool education in the Uzbek SSR. Tashkent, Fan. 1990, P. 23.)

3. Мақсудов Ш. Миллионер колхознинг болалар боғчасида. // Ўқитувчилар газетаси. – 1956. – 26 июль - №57. – Б.2. (Maqsudov Sh. In the kindergarten of the millionaire collective farm. // Teachers newspaper. – 1956. – 26 July – №57. – P.2.)
4. FVDA, 1-fond, 6-ro‘yxat, 229-ish, 7-varaq. (SAFr, M.1-fund, list 6, volume 229, sheet 7.)
5. FVDA, 1- fond. 10- ro‘yxat. 32- ish, 23- varaq. (SAFr, M.1-fund, list 10, volume 32, sheet 23.)
6. FVDA, 1125- fond, 6- ro‘yxat, 133- ish, 134-varaq. (SAFr, M.1125-fund, list 6, volume 133, sheet 134.)
7. O‘zMA, 94- fond, 8- ro‘yxat, 110- ish, 173-varaq. (NAUz, M.94-fund, list 8, volume 110, sheet 173.)
8. <https://president.uz/oz/lists/view/8127>
9. FVDA, 2- fond, 92- ro‘yxat, 10- ish, 9-varaq. (SAFr, M.2-fund, list 92, volume 10, sheet 9.)
10. O‘zMA, 94- fond, 8- ro‘yxat, 108- ish, 57-varaq. (NAUz, M.94-fund, list 8, volume 108, sheet 57.)
11. Farg‘ona viloyati Bog‘dod posyolkasi 1-sonli bolalar yaslisi enagasi Masturaxon Ergasheva (1962-yildan 1978-yilgacha ishlagan) bilan shaxsiy suhbat materiallari (1943 yilda tug‘ilgan) (Personal interview materials (born 1943) with the nanny of the children's nanny Masturakhon Ergasheva (worked from 1962 to 1978) of the Baghdad settlement No. 1 of the Fergana region).
12. Сборник важнейших постановлений и приказов. Ташкент.1981. – Б.5. (Collection of the most important resolutions and orders. Tashkent, 1981. – P.5.)
13. FVDA, 1- fond, 6- ro‘yxat, 226- ish, 66-varaq. (SAFr, M.1-fund, list 6, volume 226, sheet 66.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000